**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Prorektor ________ S. Normamatov
2022-yil 25 -avgust

**VII SEMESTR, 2022/2023-O‘QUV YILI**

# O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 - Gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 120 000 - Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) (2-mutaxassislik) |

Umumiy o‘quv soati:130 soat (7-semestr 130 soat)
Ma’ruza: 6 soat (7-semestr 68 soat)
Amaliy: 14 soat (7-semestr 38 soat)
Seminar: 12 soat (7-semestr 38 soat)
Mustqail ta’lim: 98 soat (7-semestr 116 soat )

Toshkent-2022

Fanning ishchi o‘quv dasturi ToshDO‘TAU Kengashining 2022_-yil “25” 09 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| K.Mavlonova | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Lingvodidaktika va amaliy tilshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD |
| E.Abduvalitov | Nizomiy nomidagi TDPU, pedagogika fanlari doktori |

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| M.Umurzoqova | O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, PhD |
| G.Xudoyorova | O‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani:
2022-yil “____” _____ _______ (imzo) B.Abdushukurov

“O‘zbek adabiyoti tarixi ” kafedrasi mudiri:
2022- yil “____” _______ (imzo) N.Jabborov

## FANNING DOLZARBLIGI

2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084-son Farmonlari va “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi” dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan daoirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mohiyatini aniqlash, metod, metodika, texnologiya tushunchalarining mohiyatini anglash, o‘qitish tamoyillarini aniqlash, ta’lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, uni o‘qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanishga o‘rgatish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda o‘qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta’limning turli bosqichlarida qo‘llay olish to‘g‘risidagi, ona tili va adabiyot o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga doir dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili fanini zamon talablari darajasida o‘qitishning samarali shakl va usullari, metodlari hamda texnologiyalari haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifasi – talabalarga o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi va texnologiyalarining ilg‘or yutuqlaridan xabardor qilish, ona tili ta’limining ilmiy – nazariy asoslarini o‘rgatish, ona tiliga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini singdirish, ularda kasbiy-pedagogik hamda metodik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o‘qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishdan iborat.

“O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani masalalari doirasida talaba:

– “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanining obekti va predmeti;
– o‘zbek tili va adabiyotining ta’lim tizimida tutgan o‘rni;
– o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodlari va texnologiyalari tarixi;
– o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha yaratilgan darsliklar, qo‘llanmalarning xususiyatlari;
– o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy- metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi to‘g‘risida bilishi kerak;
– o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning metod va texnologiyalarini qo‘llay olish;
– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘zbek tili va adabiyoti mazmuni, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlari;

– innovatsion o‘quv-biluv faoliyati, maxsus kurslar, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;

– o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda an’anaviy va noan’anaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish, hamkorlikda, jamoada, muammoli o‘qitish;

– o‘zbek tili va adabiyot fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitishni loyihalashtirish; innovatsion pedagogik muhitni tashkil etish vositalari bilan ishlash;

– fan dasturi, ishchi dasturi asosida taqvimiy tematik rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash;

– o‘quv maqsadi va natijalarini loyihalashtirish, kasbga yo‘naltirib muammoli o‘qitishni (keys) loyihalashtirish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish fanni zamonaviy vositalar asosida o‘qitishni, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni loyihalashtirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;***

– umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi o‘zbek tili va adabiyoti dastur va darsliklari mazmuni;

– o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodlari ularning nazariy asoslari;

– o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha mustaqil tahsil olishga o‘quvchilarni yo‘llash;

–o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholay olish;

– o‘zbek tili va adabiyoti darslari, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish;

– o‘zbek tili va adabiyoti darslarini rejalashtirish va loyihalashtirish;

– ta’lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan innovatsiyalar va texnologiyalar, multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini loyihalashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisining pedagogik faoliyatini, o‘quv mashg‘ulotlarini, kasbga yo‘naltirib muammoli o‘qitish (keys) ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***

### Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi fani falsafa, didaktika, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, zamonaviy axborot texnologiyalari fanlari bilan bogliq, ushbu fanlar bilan uzviy aloqador hisoblanadi.

### Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o‘rni

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi fani o‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash, adabiyotshunoslik va umumiy tilshunoslik yo‘nalishidagi fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish ta’lim tizimida til va adabiyot o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash

Ushbu kursni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

– o‘qitishning interaktiv usulini qo‘llash uchun har xil «o‘qitish texnologiyalari» ishlab chiqish va amalga oshirish;

– xorijiy universitetlar professorlari tomonidan o‘qilgan ayrim ma’ruzalarni texnika vositalari orqali talabalarga namoyish etish;

– test savollarini tuzish va boshqalar.

## ASOSIY QISM

### O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlari taqsimoti:

**7– semester**

| № | Mashg‘ulot mavzusi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 1. | Kirish. Adabiyot o‘qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti. Badiiy asarni tahlil qilish, tahlil turlari | 2 |
| 2 | Badiiy asarni tur va janriga ko‘ra o‘rganish | 2 |
| 3 | Adabiyot darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar | 2 |
| | **Jami** | **6** |

### O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari taqsimoti:

**7 – semestr**

| № | Mashg‘ulot mavzusi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| 1. | Zamonaviy adabiyot darslariga qo‘yiadigan talablar, ularni tashkil etishning shakl va usullari. | 2 |
| 2. | Dars ishlanmalari, ularning mohiyati, shakl va ko‘rinishlari. | 2 |
| 3. | Badiiy tahlil turlari | 2 |
| 4. | Adabiyot darslarida ifodali o‘qishning talab va me’yorlari. | 2 |
| 5. | Epizodlar ustida ishlashning o‘ziga xosliklari. | 2 |
| 6. | Ko‘rgazmali qurollar va ulardan foydalanish | 2 |
| | **Jami** | **12** |

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fani bo'yicha amaliy mashgʻulotlari taqsimoti:
7 – semestr

| № | Mashgʻulot mavzusi | Ajratil soat |
|---|---|---|
| 1 | Epik asarlarni tahlil etish metodikasi. | 2 |
| 2 | Lirik asarlarni tahlil etish metodikasi. | 2 |
| 3 | Dramatik asarlarni tahlil etish metodikasi. | 2 |
| 4 | Inshoga material to'plash, reja tuzish va yozish - muhim didaktik tadbir sifatida. Erkin mavzudagi insholarning xususiyatlari | 2 |
| 5 | Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni tashkil etish. | 2 |
| 6 | Adabiyot darslarida yangi mavzuni taqdim etish usullari | 2 |
| 7 | Adabiyot darslarida jahon adabiyotiga yondashuv | 2 |
| | **Jami** | **14** |

**Mustaqil ta'lim**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Fannig ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- Amaliyot mashgʻulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ma'lum mavzu bo'yicha referat va dars ishlanmalari tayyorlash;
- Amliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- Uy vazifalarini bajarish va h.k.

**1.Nazoratlarni amalga oshirish tartibi:**

**Oraliq nazorat**: o'tilgan mavzular bo'yicha ***yozma*** shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Fan bo'yicha semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha ***test*** shaklida o'tkaziladi.

**2. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:**

**A'lo – "5" baho** olish uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan nazariy muammoga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib, mustaqil ravishda mushohada yurita olishi, uni hal etish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.

**Yaxshi "4" baho** olish uchun uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan nazariy muammo mohiyatini tushunishi, tahlil usullarini bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.

**Qoniqarli "3" baho** olish uchun uchun talaba qo'yilgan nazariy muammoning mohiyatini tushunishi, tahlil usullarini bilishi shart.

**Qoniqarsiz "2" baho** talabaga fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasligi va fanni o'zlashtirmaganligi uchun qo'yiladi.

**3. Nazorat o'tkazish muddatlari:**

**7-semestr**

**Oraliq nazorat:**
ON: 2021-yil 22.11. – 2021-yil 25.12.
**Yakuniy nazorat:**
YN: 2022-yil 22.01 – 2022-yil 04.02.

**Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi**
**7-semestr**
**(O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi bo'yicha)**

| T/r | Mustaqil ish mavzuari | Soatlar hajmi |
|---|---|---|
| 1 | Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari | 4 |
| 2 | Adabiyot o'qitishning buyuk allomalar, mudarrislar qarashlariga tayanishi. Adabiyot o'qitishning mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari | 4 |
| 3 | Adabiyot darslarida muammoli tahlili | 6 |
| 4 | Adabiyot darslarida yangi mavzuni taqdim etish usullari | 6 |
| 5 | Adabiyot o'qitishning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ta'lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuniy qurilishi. | 4 |
| 6 | Adabiyot o'qitishga doir yondashuvlar va qat'iyatlar haqida. Adabiy ta'lim metodlari | 6 |
| 7 | Motivatsiya tushunchasi. Intrinzik va ekstrinzik motivatsiya | 4 |
| 8 | Adabiy asarni o'rganish bosqichlari. Adabiy asarni o'qishning shakliga ko'ra turlari | 8 |
| 9 | Adabiy asarni o'qishning mazmuniga ko'ra turlari | 6 |
| 10 | Badiiy asarni tahlil qilish turlari. Epusullarik asarni tahlil qilish | 6 |
| 11 | Lirik asarlarni o'rganish. Unda video-audio materiallardan foydalanish. | 8 |
| 12 | Dramatik asarlarni o'rganishda videomateriallardan foydalanish. | 8 |
| 13 | Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. Badiiy asar tilini o'rganish. | 8 |

| | | |
|---|---|---|
| 14 | Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda AKT va multimedia vositalaridan foydalanish. | 6 |
| 15 | Ta'lim bosqichlarida adabiyotni kasbga yo'naltirib o'qitish. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish. | 8 |
| 16 | Zamonaviy adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan umumkasbiy va xususiy talablar. | 6 |
| | **Jami:** | 98 |

**O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi qismi bo'yicha asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

**Asosiy adabiyotlar**

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010. – 167 b.

3. Yo'ldosh Qozoqboy, Yo'ldosh Muhayyo. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016, - 462 b.

4. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: "Ўзбекистон", 2017.

6. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006.

7. Niyozmetova R.. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Toshkent, Fan, 2007.

8. Abdulhakimova O. Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari. – T.: Fan va ta'lim. 2022.

9. Xudoyorova G. Abdulla Oripov she'riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi. – T.: Fan va ta'lim. 2022.

**Internet saytlari**

8. www. tdpu. uz

9. www. pedagog. uz

10. www. ziyonet. uz

11. www. nutq. intal. Uz

12. http://www. twipx.com